



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
O'zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta'minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O'G'LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to'qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O'G'LI**
Sun'iy intellektni ta'lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./XIDN1564>
UDC: 342.591(045)(575.1)

DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINING OLDINI OLIHNING TASHKILIY-HUQUQIY JIHATLARI

Maxmudov Firuz Baxtiyor o'g'li,

Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha
professional o'qitish markazi direktori o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-9036-0277
e-mail: firuzbek2015@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarining davlat xaridlari bilan bog'liq munosabatlaridagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish masalalari ilmiy-nazariy va tashkiliy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Davlat fuqarolik xizmatida davlat xaridlarini samarali amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishning ijobiy jihatlari amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni huquqiy tartibga solishdagi ahamiyati va davlat budjeti mablag'laridan oqilona foydalanishning dolzarbligi nuqtayi nazaridan asoslangan. Mavzu xususiyatidan kelib chiqib, tadqiqot predmeti umumiylikdan xususiylikka tomon yondashilgan, qiyoslash, mantiqiy izchillik metodlari asosida tahlil etilgan hamda ilm-fan, xorijiy tajriba, amaliyot va huquqiy tartibotlarga murojaat etilgan. Tadqiqot natijalari doirasida davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, javobgarlik asoslarini takomillashtirish, sohani raqamlashtirish va sun'iy intellekt imkoniyatlarini sohaga joriy etish, vakolatli davlat organlari vazifa va vakolatlarini qayta ko'rib chiqish masalalari atroflicha muhokama qilingan. Tadqiqot yakuni yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan huquqiy va mavjud amaliyotdagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan tashkiliy xarakterdagi takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot yakunida davlat fuqarolik xizmatchilarining davlat xaridi bilan bog'liq munosabatlarida korrupsion va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq risklar juda yuqori ekanligi bo'yicha xulosalar berilib, sohaga davlat nazorati zarur ekanligi ilmiy-huquqiy jihatdan isbotlab berilgan. Davlat xaridlari sohasida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha vakolatli organlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini huquqiy jihatdan takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmatchisi, davlat xaridlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiya, raqobat, javobgarlik, shaxsiy manfaatdorlik.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОНФЛИКТА ИНТЕРЕСОВ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК

Махмудов Фируз Бахтиёр угли,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
заместитель директора Центра профессионального
обучения юридических кадров по международным стандартам

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и организационно-правовой точки зрения анализируются вопросы предотвращения конфликта интересов государственных гражданских служащих в отношениях, связанных с государственными закупками.

Положительный эффект предотвращения конфликта интересов при осуществлении государственных закупок на государственной службе зависит от правового регулирования возникающих на практике проблем и рационального использования средств государственного бюджета. Исходя из характера, предмет исследования анализируется от общего к частному, основываясь на методах сравнения, логической последовательности, применительно к науке, зарубежному опыту, практике и юридическим процедурам. В рамках исследования рассматриваются вопросы предотвращения конфликта интересов в сфере государственных закупок, совершенствования основ ответственности, цифровизации и внедрения в отрасль возможностей искусственного интеллекта, пересмотра задач и полномочий компетентных государственных органов. В результате исследования были выдвинуты предложения организационного характера, связанные с совершенствованием законодательства в части устранения существующих правовых и практических проблем. По итогам исследования также был сделан вывод о том, что риски коррупции и конфликта интересов в отношениях государственных служащих, связанных с государственными закупками, очень высоки, также научно и юридически доказано, что данная сфера нуждается в государственном контроле. Сделан вывод о правовом совершенствовании деятельности компетентных органов по регулированию конфликта интересов в сфере государственных закупок, в их числе – Агентство по противодействию коррупции Республики Узбекистан.

Ключевые слова: государственный служащий, государственные закупки, конфликт интересов, коррупция, конкуренция, обязанность, личный интерес.

ORGANIZATIONAL AND LEGAL ASPECTS OF PREVENTION OF INTEREST CONFLICT IN THE GOVERNMENTAL PURCHASE SYSTEM

Makhmudov Firuz Bakhtiyar ugli,
Deputy Director of Center for Professional
training of lawyers by International Standards,
Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Abstract. In this article, the issues of preventing conflicts of interest in the relationships of public civil servants related to public procurement are analyzed from a scientific-theoretical and organizational-legal point of view. The positive aspects of preventing conflicts of interest in the effective implementation of public procurement in the civil service of the state are based on the importance of legal regulation of the problems arising in practice and the relevance of the rational use of state budget funds. Based on the nature of the subject, the subject of research is analyzed from the general to the specific, based on the methods of comparison, logical consistency, and application to science, foreign experience, practice, and legal procedures. As part of the results of the research, the issues of preventing conflicts of interest in public procurement, improving the basis of responsibility, digitizing the industry, introducing artificial intelligence capabilities into the industry, and revising the tasks and powers of competent state bodies were discussed in detail. In connection with the conclusion of the research, proposals of an organizational nature were put forward in connection with the improvement of the legislation in relation to the elimination of legal and existing practice problems. At the end of the study, it was concluded that the risks of corruption and conflict of interest in the relationships of state civil servants related to public procurement are very high, and it was scientifically and legally proven that the field needs state control. A conclusion was reached regarding the legal improvement of the activities of the competent bodies for the regulation of conflicts of interest in the field of public procurement, including the Anti-Corruption Agency of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: public civil servant, public procurement, conflict of interest, corruption, competition, responsibility, personal interest.

Kirish

Davlat fuqarolik xizmatchilari vazifa va vakolatlarini amalga oshirishning har qanday jarayonida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar yuz bersa-da, bu borada davlat xaridlari sohasi yetakchi o'rinda turadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida ham bu borada qator muammolar haligacha dolzarbligicha qolib, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etishni talab etmoqda. Tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan huquqiy islohotlar, samarali mexanizmlarni joriy etishga nisbatan harakat kuchaygan va tizimda kichik ijobiy natijalar qayd etilayotgan bo'lsa-da, mavjud amaliyot va ularni ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar sohaga yangi yondashuv va tashkiliy-huquqiy islohotlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Qayd etish lozimki, mamlakat taraqqiyoti va aholi farovonligi, qonuniylik va huquq tartibot mexanizmlarining samari ishlari ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiy salohiyatiga bog'liq. Bu borada davlat budjeti markaziy o'rinni egallab, uning nazorati va samaradorligi, oqilona ishlatilishi yoki o'zlashtirilishi davlat xaridlari bilan bevosita bog'liq sanaladi. Masalan, birgina O'zbekistonda 2022-yil davomida davlat xaridlari orqali 1,5 mln dan ortiq shartnoma tuzilgan, bu loyihalarning umumiy qiymati 200 trln so'mdan oshadi [1]. Afsuski, bu sohada davlat budjeti mablag'larining ortiqcha sarflanishi va o'zlashtirilishi ham katta ko'rsatkichlarni tashkil etmoqda.

Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2023-yilning yanvar oyida davlat xaridlari sohasida jami 5,4 mlrd so'mlik qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish hamda kelgusida shu kabi holatlarga yo'l qo'ymaslik haqida buyurtmachilarga 12 ta taqdimnoma kiritilgan. Aniqlangan holatlarga huquqiy baho berish uchun to'planagan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilib, natijasi bo'yicha 9 ta davlat xaridi bekor qilingan hamda 3 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. 2023-yilning fevral oyida esa vazirlik va idoralar tomonidan

oshirilgan jami 4,35 trln so'mlik 77 411 ta xaridlarda jami 25 mlrd so'mlik qonunbuzilish holatlari yuzasidan buyurtmachilarga 26 ta taqdimnoma kiritilgan. Kiritilgan taqdimnoma va so'rovnomalar natijasida 12 ta davlat xaridi bekor qilingan hamda 7 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan [2]. Bevosita tadqiqot obyekti nuqtayi nazaridan e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2021-yil va 2022-yilning 5 oyi davomida 429,3 mlrd so'mlik 5805 ta davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuz bergan [3].

Tadqiqot obyekti nuqtayi nazaridan, dastlab ilmiy manbalarga e'tibor beradigan bo'lsak, davlat xaridlari, shuningdek, mazkur faoliyatda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalalari ko'plab olimlarning muhokama markazida bo'lgan. Xususan, Yevropa huquqshunos olimi H. Kovachkova davlat xaridlari davlat samarali faoliyatining ajralmas qismi ekanligini, masalan, Yevropa Ittifoqidagi 250 000 dan ortiq davlat organlari har yili xizmatlar, ishlar va materiallarni sotib olishga YIMning 14 foizini (taxminan 2 trln yevro) sarflashini, shu sababli qonuniy davlat xaridlarini ta'minlashda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va bartaraf etish davlat mablag'lari samaradorligini ta'minlashda asosiy vosita ekanligini ta'kidlaydi [4]. Huquqshunos olim J. Horodko esa davlat xaridlarida xavflarni kamaytirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni hal qilish uchun manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq siyosatni ishlab chiqishni tavsiya etib, bunday siyosat manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash, boshqarish va sanksiyalarni qamrab olishi kerakligini aytib o'tadi [5, 12-b.].

Yana bir olim I. Lecheva davlat xaridlari-da buyurtmachi yoki uning mas'ul xodimlari o'z manfaatlarini bilan davlat xaridlari jarayoni manfaatlariga zid keladigan harakatlarga yo'l qo'ymasliklari kerakligini ta'kidlab, oilaviy, hissiy hayot, siyosiy yoki milliy yaqinliklar tufayli buyurtmachining funksiyalarini xolis va obyektiv bajarishi buzilgan taqdirda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishini aytib o'tadi

[6, 23-b.]. Huquqshunos olim L. Mokra esa manfaatlar to'qnashuvi xavfi haqida gapirib, pudratchi tashkilotning ko'rib chiqilayotgan shartnomaga bog'liq bo'lmagan mulohazalar bo'yicha qaror qabul qilishni tanlashi va faqat shu fakt tufayli tender ishtirokchisiga imtiyoz berilishi xavfini keltirib chiqaradi, deb hisoblaydi [7, 74-b.]. Umuman olganda, yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasiga to'liq qo'shilish mumkin.

Mazkur masala milliy huquqshunos, shuningdek, iqtisodchi olimlarning ham tadqiqot obyekti bo'lgan. Masalan, M. Qalandarova barcha sohalarda manfaatlar to'qnashuvi eng katta korrupsiya omillaridan biri ekanligini, davlat xaridlari ham bundan mustasno emasligini, bu xaridlarning har qanday taraf-lari (buyurtmachi, buyurtmachining vakil-lari, vakolatli organ, buyurtmachi komissiya-si a'zolari, xarid ishtirokchilari, umuman ol-ganda, qandaydir tarzda ta'sir ko'rsatadigan barcha kishilar) shaxsiy va ishbilarmonlik manfaatlari nuqtayi nazaridan davlat xarid-larining asosiy tamoyiliga sog'lom raqobatni saqlashga xalaqit berishini aytib o'tadi [8].

U. Burxanov esa davlat xaridi tushuncha-sini ta'riflab, uning davlat boshqaruvi tizimi-dagi ahamiyatini yoritishga harakat qilsa [9, 16-b.], G. Qosimova davlat xaridini davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash-da eng katta ahamiyatga ega bo'lgan, davlat sektori ishlashi uchun zarur bo'lgan tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turadigan mexanizm sifatida ta'riflab, xara-jatlar miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuqori samaradorligini ta'minlash o'ta muhimligini qayd etib o'tadi [10, 17-b.]. Fikrimizcha, yuqorida bildirilgan ilmiy-nazariy fikrlarga to'laligicha qo'shilgan holda davlatning samarali faoliyatida davlat xaridlarining ahamiyatini, uni maqsadga mu-vofiq ishlashi esa davlat fuqarolik xizmatchi-larining qonuniy faoliyatiga bog'liqligini ko'-rish mumkin. Shu bilan bir qatorda, deyarli barcha ilmiy-doktrinal qarashlarda davlat xaridlari tizimida manfaatlar to'qnashuvining

asosiy xavf va ijtimoiy-huquqiy muammo si-fatida ko'rilayotganligi uni tartibga solish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jara-yonida O'zbekiston Respublikasining davlat fuqarolik xizmati asos sifatida olinib, undagi davlat xaridlari va mazkur jarayondagi man-faatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar il-miy-huquqiy bahs obyekti sifatida tanlangan. Asosiy maqsad esa ilmiy-nazariy tahlillar aso-sida ilmiy xulosalarni shakllantirish, amali-yotdagi muammo va kamchilik, shuningdek, joriy holatning tahlilidan kelib chiqib, tash-kiliy mexanizmlarni ishlab chiqish, huquqiy normalar tahlili asosida esa milliy qonun-chilik asoslarini yanada takomillashtirish sanaladi. Mazkur maqolada ilmiy-nazariy qa-rash va huquqiy normalarni tizimli va tahliliy usulda, mantiqiy ketma-ketlikda tahlil qilish, tanqidiy ko'rib chiqish, xorijiy va milliy taj-ribani taqqoslash asosida xulosalash, tad-qiqotni umumiylikdan xususiylikka qarab amalga oshirish, shuningdek, ilmiy isbotlash, asoslash va xulosalash metodlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bilan bir qatorda, tadqiqot ishida induksiya va deduksiya, mavjud muam-mo va holatlarni real amaliyot va statistik ma'lumotlar bilan asoslash, qiyosiy-huquqiy taqqoslash bilan bog'liq metodologiya ham ustuvorlik kasb etadi. Tadqiqot obyekti mavzu xususiyatidan kelib chiqib kompleks tahlil qilinib, ish yakunida ishlab chiqilgan taklif va xulosalar ham ilmiy-nazariy, ham huquqiy jihatdan isbotlangan.

Tadqiqot natijalari

Davlat xaridlari sohasida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar-ni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratil-gan normalarga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiya-ga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasi-da korrupsiyaning oldini olishga doir cho-ra-tadbirlar nazarda tutilib, davlat xaridlarini

amalg oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning shaffof va ochiqqligi, adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanishni ta'minlash, davlat xaridlarini o'tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish va davlat elektron savdolarining samarali ishlashini ta'minlash bilan bog'liq qoidalar belgilangan.

Lekin shu bilan bir qatorda, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o'zgartirishga oid talablar belgilangan bo'lsa-da, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatdagi norma chetda qolgan. Bir qarashda qonun chiqaruvchi umumiy ravishda bu masalaga e'tibor qaratgan, deyish mumkin. Lekin, fikrimizcha, aynan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatni moddada aks ettirish qonunni qo'llash va amaliyotdagi ayrim muammolarni aniq tartibga solish imkonini beradi. Mazkur fikrlar huquqshunos olim M. Qalandarova tomonidan ham ko'tarilib, qonunning 21-moddasida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmasligi, bunga amal qilmagan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'lishi ko'rsatilganligini, lekin qonunchilikda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilib tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish masalasi belgilanmaganligi qayd etib o'tilgan. Shu jihatdan, mazkur qonunning 21-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarini "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar" so'zlaridan keyin tegishli ravishda "shu jumladan, manfaatlar to'qnashuvi" so'zlari bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, mamlakatda davlat xaridlarini huquqiy tartibga solishda maxsus – O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni markaziy o'rinini egallaydi. Mazkur qonundagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq belgilangan qoidalarga e'tibor beradigan bo'lsak, manfaatlar

to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, xarid qilish tartib-taomilini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxs bajariladigan vazifalardan chetlashtirilishi lozimligi, manfaatlar to'qnashuvi faoliyatda qonuniylikni ta'minlashning asosiy prinsipi sifatida belgilanganligini, davlat xaridlarida ishtirok etadigan har bir shaxs manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga doim harakat qilishi, bu bo'yicha rahbar va organga xabar berish tartiblari belgilanganligini ko'rish mumkin. Potensial manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarda chetlashtirish masalasi asosiy o'rinda tursa-da, ayrim manbalarda davlat xaridlari sohasida avvalo uni aniqlash lozimligi ham aytib o'tiladi. Masalan, ayrim Yevropa adabiyotlarida tender ishtirokchisini avtomatik ravishda tenderdan chetlashtirish Yevropa Ittifoqi amaliyotida nomutanosiblik deb hisoblanishi qayd etilib, buni manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mutanosiblik va oqilona boshqaruv tamoyiliga rioya qilishni talab qilishi, shu sababli tender ishtirokchisining tender savdosi o'tkazish tartibiga va uning natijalariga ta'sir qilishi mumkinligini avvalo aniqlash shartligi bilan izohlanaadi [11]. Bundan esa davlat fuqarolik xizmatchisini davlat xaridi tartib-taomillaridan chetlashtirishdan oldin haqiqiy potensial manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligini aniqlash lozim, degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot obyekti nuqtayi nazaridan aytishimiz mumkinki, yuqoridagi qonunda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan kelishuv va bitimlarni bekor qilish, o'zgartirishga oid maxsus normalar belgilanmagan. Shu nuqtayi nazardan qonunning 44-moddasida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda davlat xaridlari tartib-taomilini amalga oshirish davlat organi yoki maxsus vakolatli organ tomonidan jarayonning istalgan bosqichida bekor qilinishiga oid norma bilan to'ldirish lozim. Masalan, raqobatni cheklagan holda tanlovlar o'tkazganda tartib-taomilni bekor qilish masalasi O'zbekis-

ton Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunida nazarda tutilgan. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka davlat xaridlari sohasida davlat fuqarolik xizmatchisining manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yayotganligi to‘g‘risida axborotni ma‘lum qilgan davlat xaridlari tartib-taomillari boshqa ishtirokchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi normalarni ham kiritish mumkin. Bu borada olim T. Atamurodovning reyting ball tizimi asosida baholash taklifini bildirib, korrupsiyaviy holatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish darajasiga qarab baholab borish va rag‘batlantirish taklifiga to‘liq qo‘shilishimiz mumkin [12, 266-b.].

Fikrimizcha, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati bilan bog‘liq davlat xaridlari sohasida yana bir muhim masala bu sohani bevosita tartibga solishga qaratilgan davlat nazoratining yetarli darajada emasligi, bu borada maxsus vakolatli organ tashkil etilmaganligi bilan ham bog‘liqdir. Bu borada olim L. Nikiforova davlat iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun xususiy tadbirkorlik salohiyatini ham jalb qilishini, davlat xaridlari davlat tomonidan tashkiliy-iqtisodiy funksiyalarni bajarishga tashkiliy jihatdan yordam beruvchi tizim ekanligini qayd etib, ommaviy va xususiy manfaatlar nuqtayi nazaridan tizimning doimo davlat tomonidan tartibga solinishga ehtiyoji borligi bilan izohlaydi [13, 15-b.].

Bugungi kun amaliyotiga qaraydigan bo‘lsak, respublikada tashkiliy jihatdan mazkur sohani tartibga solish O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni 13-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat xaridlari sohasida umumiy vakolatli organ sifatida belgilanib, davlat xaridlari sohasida davlat siyosati shakllanishi va amalga oshirilishini ta‘minlashi, nazorat ishlarini muvofiqlashtirishi, xarid qilish tartib-taomil-

lari tartibini belgilashi va boshqa vakolatlari belgilangan bo‘lsa, qonunning 14-moddasida maxsus organning davlat xaridlari sohasidagi vakolatlari belgilanib, davlat xaridlari sohasida davlat siyosatini amalga oshirishi, davlat xaridlari bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishi ustidan monitoring va nazoratni ta‘minlashi va boshqa qator tashkiliy-huquqiy vakolatlar belgilangan. Fikrimizcha, Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjet tashkilotlariga mablag‘ ajratishi va uning ijrosini o‘zi nazorat qilishi mantiqan noto‘g‘ri sanaladi.

Bundan tashqari, davlat xaridlari sohasida davlat budjeti mablag‘lari hisobi, nazorati, bu sohadagi korrupsion holatlar natijalarini ko‘rib chiqishda parlament nazorati instituti ham mavjud bo‘lib, bu borada Parlamentning ham qator vakolatlari qonunchilikda belgilangan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonunidagi davlat budjeti ijrosining borishini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzasini eshitish vakolatlari davlat xaridlari masalasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shuningdek, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining to‘g‘ri qo‘llanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarining aniqlangan buzilishlari haqidagi ma‘lumotlar yuzasidan axborot almashish, davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlarining samaradorligi va qonuniyligining auditini o‘tkazish masalalarida O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasining ham vakolatlari qonunchilikda belgilangan. Bu borada Hisob palatasi ham markaziy organlardan biri sanalib, davlat xaridlari sohasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olsa-da, samarali faoliyat yuritmoqda. Masalan, Hisob palatasi tomonidan 2021-yilda davlat xaridlari jarayonida 763 ta holatda

971,1 mlrd so'mlik manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganligi, birgina qurilish sohasining o'zida esa 3,5 trln so'mlik tender savdolarida qonunbuzilish holatlari aniqlangan [15]. Shu bilan bir qatorda, Hisob palatasiga davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish vakolati berilgan.

Bundan tashqari, davlat xaridlari sohasida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarning oldini olishda O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ham asosiy davlat tashkilotlaridan biri sanaladi. Xususan, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi asosida tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish, davlat xaridlari sohasidagi tenderlar natijalarini ochiq e'lon qilish, bu borada tegishli taqdimnomalar kiritish bilan bog'liq vazifa va vakolatlar shular jumlasidandir. Agentlikning birgina 2021-yildagi davlat xaridlari sohasidagi faoliyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, 2021-yilda o'tkazilgan masofaviy monitoringda budjet buyurtmachilari tomonidan qiymati 145,3 mlrd so'mlik 452 ta tanlovda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi va "Raqobat to'g'risida"gi qonunlarning talablari buzilishiga yo'l qo'yilganligi aniqlanib, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf qilishga qaratilgan 372 ta taqdimnoma kiritilgan [16].


Qolaversa, bugungi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan aniqlanadigan huquqbuzarliklarning aksariyati davlat xaridlari tizimidagi manfaatlar to'qnashuvi holatlari bilan bog'liqdir. Ammo amaldagi qonunchilikda ushbu sohada sodir etiladigan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha agentlik faqatgina taqdimnoma kiritish vakolatiga ega sanaladi.

Prezident farmoni bilan Agentlikka manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnoma, buyruq va boshqa hujjatning amal qilishini to'xta-

tib turish to'g'risida taqdimnoma yoki uni haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudga da'vo kiritish vakolati berilgan bo'lsa-da, bu boradagi maxsus qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmagan. Bu esa huquqbuzarliklarni o'z vaqtida va joyida tezkor bartaraf etish imkoniyatini pasaytiradi. Fikrimizcha, bu borada nafaqat haqiqiy emas deb topish, balki o'zgartirish kiritish, bekor qilish masalalarida ham tegishli tartibda sudga ariza berish vakolatini berish va bu borada tegishli qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq. Bu borada davlat boji masalasi ham mavjudligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Davlat boji to'g'risidagi Qonunga o'zgartirish kiritgan holda bu boradagi sudga ariza bilan murojaat qilganda davlat bojidan ozod qilish masalasini ham qayd etish lozim. Shuningdek, agentlikka mazkur masalalarda ma'muriy bayonnomalar tuzish, vakolatini berish maqsadga muvofiq sanaladi. Qiyoslash uchun aytadigan bo'lsak, bu boradagi vakolat Hisob palatasiga ham berilganligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi vakolatli organlar bilan bir qatorda, davlat fuqarolik xizmatining davlat xaridlari bilan bog'liq munosabatlarini tartibga solishda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi ham muhim o'rin tutadi.

Maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan qo'mita davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish borasida ham vakolatlarga ega bo'lgan tashkilot sanaladi. Umuman olganda, davlat xaridlari sohasida manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirish, o'z navbatida, raqobatga oid qonunchilikning ham buzilishiga olib keladi. Davlat fuqarolik xizmatchisining o'z tanishi, qarindoshi yoki o'zaro manfaatdorlik asosida boshqa subyekt bilan davlat xaridini amalga oshirishi raqobatni cheklashga olib keladi. Bu borada quyidagi statistik ma'lumotlar ham real holat to'g'risida xulosa qilish imkonini beradi.



Rasm. 2022-2023-yillarda o'tkazilgan davlat xaridlaridagi raqobatga zid harakatlar ko'rsatkichi

Shu bilan bir qatorda, davlat xaridlari tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda raqobat masalasi muhim o'rin tutadi. Bu borada D. Abdraximovning davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda raqobat mexanizmlarini takomillashtirish taklifiga to'raligicha qo'shish mumkin [17].

Yuqorida tahlil qilinganidek, davlat xaridlari masalalari bilan bog'liq vazifa va vakolatlar boshqa tashkilotlarga o'z asosiy funksiyalari doirasida, faoliyatdan kelib chiqib qo'shimcha ravishda berilganligini ko'rish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bozor iqtisodiyoti va investitsiya muhiti yanada rivojlanayotgan bugungi sharoitda sohaga mas'ul maxsus vakolatli organni tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. To'g'ri, bugungi ma'muriy islohotlarda ixcham davlat apparatini tashkil etish, bu boradagi xarajatlarni qisqartirish siyosati maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilmoqda. Lekin, fikrimizcha, sohadagi korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi natijasida qator ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklar sodir etilmoqda. Buning natijasida juda katta miqdordagi davlat mablag'lari o'zlashtirilmoqda.

Fikrimizcha, maxsus vakolatli organni tashkil etish xarajatlari uning samarali faoli-

yati natijasida bundan ham katta xarajatlarning oldi olinishi va

soha takomillashuviga hissa qo'shadi. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlarini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organni tashkil etish va unga davlat xaridlarini tashkil etish, o'tkazish, monitoring qilish va javobgarlikka tortish yuzasidan tegishli vakolatlarni berish, sohadagi eng ko'p sodir etiladigan huquqbuzarliklar asosi bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olishni faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari tahlili

Davlat xaridlari sohasida manfaatlari to'qnashuvi yuzaga kelishining eng katta ehtimollaridan biri bu to'g'ridan to'g'ri shartnomalarni tuzish sanaladi. Shuning uchun maqsadga muvofiq va adolatli tanlov shartlari asosida davlat xaridlarini amalga oshirishni ommalashtirish lozim. Bu borada davlat dasturi loyihasida ham qator vazifalar belgilanib, to'g'ridan to'g'ri shartnomalarni majburiy tartibda jamoatchilikka ochiqlash tizimini joriy qilish, Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan subyektlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish va ularni qisqartirish choralarini ko'rish ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqa-

ri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son farmoni bilan davlat xaridlarida raqobatli savdo turlarini cheklovchi to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish taqiqlangan.

To'g'ridan to'g'ri shartnoma natijasida yetkazib beriladigan tovarning sifat, talab va shartnoma shartiga yoxud e'londagi talablarga muvofiq emasligi, bu sohada davlat nazoratining yetarli darajada emasligi bilan bog'liqdir. Bu borada davlat fuqarolik xizmatchisi yetkazib berilgan tovarni qabul qilish evaziga undan ulush olishi yoki boshqa manfaatdorlik olishi mumkinligi sababli davlat mablag'lari maqsadsiz sarflanishi va sifatsiz tovar qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, aniq yetkazib berish muddatlarida ham muammolar mavjud bo'lib, kechiktirganligi evaziga mahsulotni qabul qiluvchi davlat xizmatchisi manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yishi, moddiy manfaat olishi mumkin. Sifatsiz yoki o'z vaqtida davlat xaridi mahsulotining yetkazib berilmaganligi esa uni takror olinishi, ishning keyinga surilishi va vijdonli yetkazib beruvchilarning ham qonuniy ishlash tartibi buzilishiga olib keladi. Bu boradagi qoida xalqaro hujjatlarda ham qayd etilib, davlat xaridlari tizimida tartibga solinmagan manfaatlar to'qnashuvi Xalqaro moliyaviy reglamentda nazarda tutilgan ochiqlik, teng muomala yoki kamsitmaslik tamoyillarining buzilishiga olib kelishi belgilangan bo'lsa, huquqshunos olim B. Niyelsen manfaatlar to'qnashuvi holatlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning tuzilmaviy harakatlar bo'yicha davlat xaridlariga ishonchini yo'qotishiga va halol operatorlarni tender o'tkazishdan qaytarishga olib kelishi mumkinligini aytib o'tadi [18, 3-b.].

Shu sababdan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida Insofsiz ijrochilar reyestrini sifatli yuritish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yg'an shaxslarni belgilangan muddatlarida (masalan, 2-3 yil) davlat xaridlarida qatnashishini cheklash amaliyotini yo'lga qo'yish mumkin.

Bundan tashqari, amaldagi tartibga qaraydigan bo'lsak, davlat xaridlari tizimida baholash, tekshirish faoliyati baribir inson omiliga bog'langan: faoliyat tegishli davlat fuqarolik xizmati organida tuzilgan Xarid komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Fikrimizcha, mazkur hujjatlar aylanishi, ularni tekshirish jarayonini turli axborot tizimlari orqali xabar almashish imkoniyatini nazarda tutgan holda sun'iy intellekt orqali tekshirish va baholash amaliyotini joriy etish lozim. Bu borada Xarid komissiyalari faoliyatini ham qayta ko'rib chiqish lozim. Bizningcha, tashkilotdagi komissiya faoliyatiga baribir tashkilot rahbari raislik qiladi va qaror qabul qilish uning vakolatida bo'ladi. Shu sababli, tizimni inson omilidan imkon qadar holi qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim. Albatta, faoliyat texnik shartlar asosida amalga oshirilsa-da, fikrimizcha, yuridik jihatdan bu borada tegishli normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish lozim.

Tashkiliy nuqtayi nazaridan davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida davlat xaridlari bilan bog'liq munosabatlarni ichki, tashkilot xususiyatidan kelib tartibga solishga qaratilgan maxsus ichki hujjatlarning mavjud emasligi ham mavjud muammolardan biridir. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat)ni ishlab chiqish bilan bog'liq qoidalar belgilangan. Shu jihatdan, o'ylaymizki, davlat fuqarolik xizmati sohasida bu borada "Davlat fuqarolik xizmati organlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini

ishlab chiqish va qabul qilish davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida yagona amaliyotning shakllanishiga imkon beradi. Bu boradagi nizom loyihasida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan komissiya tarkibini shakllantirish, affillangan shaxslar, xabar berish, ishtirokchilar reyestri-ni oshkor qilish kabi masalalarni qayd etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, davlat xaridlari sohasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarning oldini olishda oshkoralik, sohani raqamlashtirish, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish amaliyotining aniq chegara va tartibini belgilash, bu amaliyotni imkon qadar qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham endi davlat budjetining har bir satriga aniq mas'ullar birlashtirilishi, budjet mablag'lari hisobidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzishga yo'l qo'ymaslik, ochiq-oshkora tanlov va tenderlar o'tkazish amaliyotini kengaytirish kerakligini qayd etib o'tgandi [19].

Bu borada, mutaxassis O. Mamirova davlat xaridlari sohasida qonuniylilikni ta'minlashda ochiqlik, oshkoralik va jamoatchilik nazoratining asosiy mexanizm sifatida taklif etganligini [20] ham ijobiy baholash mumkin. Shu jihatdan, davlat organining yil davomida qanday davlat xaridlarini qanday maqsad va tartiblar asosida, qancha pul va kimlar ishtirokida amalga oshirganligini muntazam ochiqlab borish amaliyotini joriy etish lozim. Bu tizim tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, huquqiy jihatdan to'liq tartibga solinmaganligi, javobgarlik asoslarining belgilanmaganligi tur xil amaliyot shakllanishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, amalda davlat organlarining xarajatlari bilan bir qatorda daromadlarini ham, jumladan, budjet va budjetdan tashqari daromadlarni shakllanish tartibi va manbasiga oid ma'lumotlarni ham qayd etish o'rtadagi tafovutni aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Far-

monida ham aynan davlat organlari va tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalari-ga kelib tushayotgan mablag'lar, ularning sarflangan maqsad va yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlarni ochiq e'lon qilinishi belgilan-gan. Fikrimizcha, bu borada ham huquqiy bo'shliqlar mavjud bo'lib, tegishli norma-tiv-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Shu bilan birgalikda, sohani raqamlashti-rish orqali yoki sohaga sun'iy intellekt me-xanizmlarini joriy etgan holda davlat xarid-lari sohasida manfaatlar to'qnashuvini (qa-rindoshlik, oldin birga ishlaganlik, birga ta'lim olganlik, ishbilarmonlik muhiti, oldin davlat xaridini amalga oshirganlik va bosh-qa) aniqlash mexanizmlarini yaratish lozim. Bu bo'yicha I. Lecheva davlat xaridlari sub-yektlari o'rtasida tanish-bilish asosida man-faatlar to'qnashuvi yo'q ekanligini aniqlashda esa ularning so'nggi 5 yildagi faoliyatini tek-shirish kerakligini taklif etadi. Shuningdek, tizimda affillangan shaxs va benefitsiarlar ro'yxatini yuritish bo'yicha maxsus imkoni-yatlarni nazarda tutish lozim. Bundan tashqa-ri, davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat faoliyatiga baho berishda davlat xaridlari so-hasidagi faoliyatiga ham baho berish, bekor qilingan yoki noqonuniy deb topilgan davlat xaridlari to'g'risidagi qarorini ommaviy e'lon qilib borish lozim. Bu boradagi amaliyot Yev-ropa mamlakatlarida ham uchrab, davlat xiz-matchisi va davlat organining moliyaviy faoli-yatiga baho berish orqali davlat xaridlaridagi manfaatlar to'qnashuvini aniqlash mumkinli-gi, oldini olishda esa profilaktika va bartaraf etish choralarining samaradorligi buyurtma-chi organlarning (masalan, davlat muassasa-lari, maktablar, davlatga qarashli korxonalar va boshqalar) imkoniyatlariga ham bog'liqligi qayd etib o'tiladi. Shu sababli, bir mexanizm sifatida maxsus sayt yoki nashrlarda davlat xaridlaridagi manfaatlar to'qnashuvi holat-larini ochiqlash orqali davlat fuqarolik xiz-matchilarining tizimdagi faoliyatiga baho berishni nazarda tutish mumkin.

Albatta, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida davlat xaridlari bilan bog'liq huquqbuzarliklarni, xususan, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq huquqbuzarliklarni bartaraf etishda samarali javobgarlik choralari belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, bu boradagi javobgarlik asoslarini belgilashda alohida ilmiy-huquqiy yondashish talab etiladi. Bu esa sohadagi huquqbuzarliklar davlat manfaatlarini (budjet mablag'lari)ga zarar yetkazilishi, zarar miqdorining katta ekanligi va huquqbuzarlik asosan qasddan sodir etilishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, javobgarlik asoslarida moddiy sanksiyalarni qo'llash, yetkazilgan zararni bartaraf etish ustuvorlik kasb etishi kerak. Javobgarlik asoslarining nisbatan kuchliroq bo'lishi esa maqsadga muvofiq. Buni shu bilan izohlash mumkinki, sanksiyada ma'lum bir bazaviy hisoblash miqdori nazarda tutiladi, lekin manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarda milliardlab summadagi mablag'lar o'zlashtirilishi mumkin.

Bu borada amaldagi huquqiy tartibotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2021-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga 175⁸-modda asosida davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish uchun ma'muriy javobgarlik choralari belgilangan. Mazkur moddaning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq eng og'ir sanksiya belgilangan qismiga e'tibor beradigan bo'lsak, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima belgilangan. Yuqorida aytganimizdek, mavjud amaliyot mazkur mablag'dan bir necha barobar ortiq zararlar yetkazilayotganini ko'rsatmoqda.

Jinoyat kodeksida esa bu toifadagi qilmish uchun alohida javobgarlik belgilanmagan bo'lib, tegishli moddalar dispozitsiyasi va sodir etilgan qilmish (masalan, korrupsiya, firibgarlik, budjet mablag'larini o'zlashtirish va hokazo) xususiyatidan kelib chiqib, kvalifikatsiya qilinadi.

Bundan tashqari, MJtKning tegishli modda sanksiyasida javobgarlik faqat mansabdor shaxsga nisbatan belgilangan. Bu holat esa amaliyotda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq boshqa subyektlarning ham huquqbuzarlik sodir etishi va javobgarlikdan ozod bo'lib qolish imkoniyatini bermoqda. Fikrimizcha, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun asosida ushbu jarayonda ishtirok etuvchi har bir davlat fuqarolik xizmatchisi, xodimning vazifa va vakolatlari xususiyati va sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlikning oqibatidan kelib chiqib, boshqa subyektlar uchun ham javobgarlik choralari belgilash maqsadga muvofiq.

Jinoyat kodeksi nuqtayi nazaridan davlat xaridlari bilan bog'liq moddalarni aniqlashtirish, ularni kvalifikatsiya qilish va javobgarlik asoslarni qo'llashni soddalashtirish va tushunarli bo'lishi uchun Oliy Sud Plenumi qarorini ham ishlab chiqish, davlat xaridlari sohasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq sodir etiladigan huquqbuzarliklar natijasida davlat manfaatlariga moddiy zarar yetishi nuqtayi nazaridan nafaqat javobgarlikka tortish, shu bilan birga, yetkazilgan zararlarini qoplash bilan bog'liq majburiyatlarni ham qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkin bo'lgan asosiy sohalardan biri davlat xaridlari bilan bevosita bog'liqdir. Ilmiy nazariy va tashkiliy-huquqiy tahlillar natijasida aniq bo'ldiki, davlat xaridlari tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish nafaqat qonuniylikni ta'minlash, balki ortiqcha sarflanayotgan yoki o'zlashtirilayotgan davlat budjeti mablag'larini tejash imkonini beradi. Shu jihatdan, tadqiqot yakunlari yuzasidan quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

– O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarini "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar" so'zlari-dan keyin tegishli ravishda "shu jumladan,

korruptsiyaviy holatlarga olib keladigan manfaatlar to'qnashuvi" so'zlari bilan to'ldirish;

– O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni 44-moddasini korruptsiya va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda davlat xaridlari tartib-taomilini amalga oshirish davlat organi yoki maxsus vakolatli organ tomonidan jarayonning istalgan bosqichida bekor qilinishi hamda davlat fuqarolik xizmatchisining manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yayotganligi to'g'risida axborotni ma'lum qilgan davlat xaridlari tartib-taomillari boshqa ishtirokchilarini rag'batlantirishga oid norma bilan to'ldirish;

– O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'muriy bayonnomalar tuzish vakolatini berish, O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish kiritgan holda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holda amalga oshirilgan davlat xaridlari shartnomalarini bekor qilish, haqiqiy emas deb topish yuzasidan sudga ariza bilan murojaat qilganda davlat bojidan ozod qilish;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlarini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organni tashkil etish va unga davlat xaridlarini tashkil etish, o'tkazish, monitoring qilish va javobgarlikka tortish yuzasidan tegishli vakolatlarni berish, sohadagi eng ko'p sodir etiladigan huquqbuzarliklar asosi bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olishni faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash;

– tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida Insofsiz ijrochilar reyestrini sifatli yuritish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan shaxslarni belgilangan muddatlarda (ma-

salan, 2-3 yil) davlat xaridlarida qatnashishini cheklash amaliyotini yo'lga qo'yish;

– davlat xaridlari sohasida hujjatlar aylanishi, ularni tekshirish jarayonini turli axborot tizimlari orqali xabar almashish imkoniyatini nazarda tutgan holda sun'iy intellekt orqali tekshirish va baholash amaliyotini joriy etish lozim. Bu borada, amaldagi Xarid komissiyalari faoliyatini ham qayta ko'rib chiqish;

– davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida yagona amaliyotning shakllanishi uchun "Davlat fuqarolik xizmati organlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish;

– amalga oshirilgan davlat xaridlari, narxi, ularning ishtirokchilari, xarajat va daromadlarga oid ma'lumotlarni keng jamoatchilikka rasmiy e'lon qilib borish, davlat xaridlaridagi manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ochiqlash orqali davlat fuqarolik xizmatchilarining tizimdagi faoliyatiga baho berish;

– javobgarlikni kuchaytirish, xususan, MJtKga o'zgartirish kiritgan holda jarayonda ishtirok etuvchi har bir davlat fuqarolik xizmatchisi, xodimning vazifa va vakolatlari xususiyati va sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik oqibatidan kelib chiqib, davlat xaridlari barcha subyektlari uchun javobgarlik choralari belgilash, Jinoyat kodeksida davlat xaridlari bilan bog'liq moddalarni ro'yxatini belgilash, zararni qoplash mexanizmlarini belgilash, bu o'yicha Oliy Sud Plenumi qarorini ham ishlab chiqish.

Umuman olganda, davlat xaridlari sohasida yuzaga kelayotgan real muammolar huquqiy va tashkiliy islohotlarni talab etadi. Tahlil davomida bildirilgan fikrlar, yuqorida taklif etilayotgan huquqiy mexanizm va tashkiliy islohotlar esa, o'ylaymizki, soha rivojiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Nazorat qoidalariga rioya qilmaslik, xavfsizlik choralari ko'rmaydi, siz savdolar va ortiqcha garov puli – Davlat xaridlari tizimini tartibga solishga muhayoz(mi?) [No oversight, lack of a separate

authority, non-competitive bidding and excessive collateral – the public procurement system needs reform (does it?). Available at: <https://daryo.uz/k/2023/06/13/nazorat-yoq-alohida-vakolatli-organ-yetishmaydi-raqobatsiz-savdolar-va-ortiqcha-garov-puli-davlat-xaridlari-tizimi-islohotga-muhtojmi>

2. The anti-corruption agency is constantly studying the announcements of public procurements made by budget customers through special information portals. Available at: <https://anticorruption.uz/uz/article/davlat-xaridlari-sohasida-2023-yilning-yanvar-oyida-otkazilgan-monitoring-va-tahlil-natijalari>

3. O'zbekistonda 17 oy hisobida 429,3 mlrd so'mlik davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan [A conflict of interest was detected in public procurement worth 429.3 billion soums for 17 months in Uzbekistan]. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/01/burxonov/>

4. Comenius University in Bratislava, Slovakia. Available at: <https://www.flaw.uniba.sk/en/study/applicant-admissions/phd-degree-programme/>

5. Jacek H. Identifying conflicts of interests in public procurement procedures for structural Actions. A practical guide for managers, p. 12.

6. Lecheva I. Indicators for conflict of interest in public procurement financed by the EU. Structural Funds. *KSI Transactions on Knowledge Society*, 2015, vol. 8, no. 2, pp. 23–25. Available at: <http://www.tksi.org/JOURNAL-KSI/PAPER-PDF-2015/2015-2-04.pdf>

7. Mokra L. Free movement of persons and current migration challenges in the EU's framework. *European Journal of Transformation Studies*, 2016, vol. 4, no. 2, pp. 73–79.

8. Conflict of interest in public procurement. Available at: <https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/publications/davlat-haridlari-soasida-manfaatlar-tnashuvi#>

9. Burxanov U.A. Davlat xaridi [State procurement]. Tashkent, 2010, 16 p.

10. Qosimova G.A. G'aznachilik tizimida davlat xaridining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the legal basis of state procurement in the treasury system]. *International Scientific Electronic Journal of Finance and Accounting*, Tashkent, 2019, 17 p.

11. Atamurodov T. Davlat xaridlari tashkil etilishini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari [Priority directions for improving the organization of public procurement]. *Economy and Innovative Technologies*, 2020, no. 4, 266 p.

12. Nikiforova L. Gosudarstvennyye zakupki kak faktor razvitiya regional'nogo promyshlennogo kompleksa [State procurement as a factor in the development of the regional industrial complex]. PhD thesis. 2010, p. 16.

13. Deputies reviewed the activity of the chamber of accounts in 2021. Available at: <https://ach.gov.uz/uz/lists/view/207>

14. A press conference was held dedicated to the results of the agency's activities in 2021. Available at: <https://anticorruption.uz/uzc/item/2022/03/10/agentlikning-2021-jildagi-faoliyati-natizhalariga-bagishlangan-matbuot-anzhumani-bolib-otdi>

15. Works carried out by the competition committee in the field of public procurement oversight. Available at: <https://raqobat.gov.uz/uzb/raqobat-qomitasi-tomonidan-davlat-haridlari-sohasida-nazoratni-taminlash-yuzasidan-amalga-oshirilgan-ishlar/>

16. Abdrakhimov D. O putyakh povysheniya effektivnosti sistemy konkursnykh goszakupok [On the way to increase the efficiency of the competitive public procurement system]. Available at: <http://dual.deol.ru/users/DecisionSupporter/kt3-99ef>

17. "Uzbekistan – 2030" – halq strategy. Online-portal. Available at: <https://uzbekistan2030.uz/uz/presidentDiscussion>

18. Brian N. Identifying conflicts of interests in public procurement procedures for structural Actions. A practical guide for managers, p. 3.

19. The main directions of the state budget for 2024 were reviewed. Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/6783>

20. Public control is widely used in the fight against corruption. Available at: https://uza.uz/uz/posts/korruptsiyaga-qarshi-kurashishda-zhamoatchilik-nazoratidan-keng-foydalaniladi_543052

21. Contracting authorities are defined in Articles 7-9 of the Public Procurement Act.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.